

**HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARINING
FAOLIYATIDA HUQUQ USTUVORLIGI TAMOYILLARI**

Mamadaminov Abror Abdujapar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarining ahamiyati tahlil qilingan. Huquqiy davlat qurish jarayonida huquq ustuvorligi prinsipi huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatiga qanday tatbiq etilishi, uning fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi o'rni, zamonaviy sharoitda qonuniylik va huquq ustuvorligini ta'minlashning amaliy mexanizmlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: huquq ustuvorligi, qonuniylik, huquqni muhofaza qilish organlari, huquqiy davlat, fuqaro huquqlari, huquqiy kafolatlar, huquqiy nazorat mexanizmlari.

**ПРИНЦИПЫ ВЕРХОВЕНСТВА ПРАВА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ**

Мамадаминов Аброр Абдуджапар угли

Ташкентский государственный юридический университет
Факультет магистратуры и заочного обучения
Магистрант по специальности «Право государственного управления»

Аннотация: в данной статье анализируется значение принципов верховенства права в деятельности органов внутренних дел. Как принцип верховенства права применяется к деятельности органов внутренних дел в процессе построения правового государства, его роль в обеспечении прав и свобод граждан, изучаются практические механизмы обеспечения законности и правопорядка в современных условиях.

***Ключевые слова:** верховенство права, законность, органы внутренних дел, правовое государство, гражданские права, правовые гарантии, правовые механизмы контроля.*

**PRINCIPLES OF THE RULE OF LAW IN THE ACTIVITIES OF
LAW ENFORCEMENT BODIES**

Mamadaminov Abror Abdujapar ugli

Tashkent State University of Law

Faculty of Master's and Correspondence Education

Master's student in the specialty of Public Administration Law

***Abstract:** this article analyzes the importance of the principles of the rule of law in the activities of law enforcement bodies. How the principle of the rule of law is applied to the activities of law enforcement bodies in the process of building a legal state, its role in ensuring the rights and freedoms of citizens, and practical mechanisms for ensuring legality and the rule of law in modern conditions are studied.*

***Keywords:** rule of law, legality, law enforcement bodies, legal state, civil rights, legal guarantees, legal control mechanisms.*

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat qurilishi jarayonida huquqni muhofaza qilish organlari tizimi va ularning faoliyatini tashkil etishda sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat. Bu jarayonda huquq ustuvorligi prinsipi markaziy o'rin egallaydi, chunki aynan shu prinsip huquqni muhofaza qilish organlarining samarali va qonuniy faoliyatining asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar” deb belgilangan [1; 7-b]. Bu qoida huquqiy davlatning eng muhim prinsipi bo‘lgan huquq ustuvorligining konstitutsiyaviy tasdig‘idir.

Zamonaviy dunyoda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarining ta‘minlanishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, demokratik huquqiy davlatda har bir shaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlash uchun, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zlari qonun ustuvorligiga qat‘iy rioya etishlari, qonunlarni to‘g‘ri va bir xil qo‘llashlari, fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipiga amal qilishlari talab etiladi. Shu bois, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan “Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari” bilan ham bog‘liq [2; 5-b]. Bu o‘z navbatida huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

METODLAR

Ushbu tadqiqotda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini o‘rganish uchun quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan

foydalanildi. Tarixiy metod orqali O'zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlari tizimining shakllanishi, huquq ustuvorligi tamoyilining rivojlanish tarixi va bosqichlari o'rganildi. Bu metod yordamida huquq ustuvorligi tushunchasining shakllanish jarayoni va uning O'zbekiston huquq tizimiga singdirilishi masalasi tahlil qilindi. Tizimli tahlil metodi huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligi va alohida elementlarining xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy-huquqiy metod O'zbekiston va boshqa mamlakatlar tajribasini qiyoslash orqali huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini tatbiq etishning xususiyatlarini aniqlash uchun qo'llanildi. Normativ-dogmatik metod qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish, huquqiy normalarning mazmunini ochib berish, huquqni muhofaza qilish organlarining huquq ustuvorligi tamoyillarini amaliyotda qo'llash mexanizmlarini o'rganish uchun foydalanildi. Sotsiologik metod esa huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlashning amaliy holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning echimini topish uchun qo'llanildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarining mazmun-mohiyati, ularning O'zbekiston qonunchiligida mustahkamlanishi va amaliyotda qo'llanilishi bilan bog'liq quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirildi:

Huquq ustuvorligi – bu jamiyatda barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va ularning birlashmalari Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz amal qilishini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy tamoyildir. Bu prinsip

konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, qonunlarning ommaviy va hammabop bo'lishi, qonun oldida hamma teng bo'lishi, qonunlarning barqarorligi, hokimiyat bo'linishi prinsipi, sud hokimiyatining mustaqilligi hamda inson huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyili markaziy o'rin egallaydi. Chunki, bu organlar jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifalarini bajaradilar. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qilish organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishda qonun doirasida harakat qilishlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishlari va ta'minlashlari lozim.

Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyilining ahamiyati huquqni muhofaza qilish organlarining qonun doirasida harakat qilishini ta'minlashda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish samaradorligini oshirishda, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida suiiste'molchilik va qonunbuzarliklarning oldini olishda, jamiyatda huquqiy tartibotni mustahkamlashda hamda fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlariga bo'lgan ishonchini oshirishda namoyon bo'ladi. Bu tamoyil huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan amalga oshiriladigan barcha harakatlar va qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi va asoslantirilganligini ta'minlash, ularning faoliyatida xolislik va adolatlilikni qaror toptirish, jamiyatda qonun va qonun asosida faoliyat ko'rsatuvchi huquqni muhofaza qilish organlariga hurmat va ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunchiligida huquq ustuvorligi tamoyili qator normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (15-modda), "Normativ-

huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonun, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun, “Sud to‘g‘risida”gi qonun, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonun shular jumlasidandir. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunining 2-moddasida ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida qonun ustuvorligini ta’minlash belgilangan. Mazkur Qonunning 6-moddasida ichki ishlar organlari xodimlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga aniq rioya etishi hamda ularni bajarishi shartligi ko‘rsatilgan [3; 2-b]. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, prokuratura organlari qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu ham huquq ustuvorligi tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi [4; 3-b].

Huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash uchun huquqiy, tashkiliy va jamoatchilik nazorati mexanizmlari mavjud. Huquqiy mexanizmlar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining mavjudligi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan sud nazoratining o‘rnatilganligi, prokuratura organlari tomonidan qonuniylik ustidan nazoratning amalga oshirilishi, advokatlik institutining mavjudligi va yuridik xizmatlar faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligini o‘z ichiga oladi. Tashkiliy mexanizmlar huquqni muhofaza qilish organlari tizimida ichki nazorat va monitoring tizimining mavjudligi, mansabdor shaxslarning hisobdorlik tizimining yo‘lga qo‘yilganligi, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish tizimining mavjudligi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining shaffofligini

ta'minlash mexanizmlaridan iborat. Jamoatchilik nazorati mexanizmlari esa fuqarolik jamiyati institutlarining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan nazorati, ommaviy axborot vositalarining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini yoritishi, fuqarolarning murojaatlari asosida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini monitoring qilishni qamrab oladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlashda bir qator muammolar aniqlandi. Ular jumlasiga huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining pastligi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida mavjud bo'shliqlar va ziddiyatlar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy va axloqiy tayyorgarligidagi kamchiliklar, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan nazorat mexanizmlarining samaradorligi pastligi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlashdagi muammolar, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiya holatlarining mavjudligi, fuqarolarning huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati darajasining pastligi kiradi. Bu muammolarni hal etish huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarining to'liq ta'minlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga imkon beradi.

MUHOKAMA

Huquqiy davlat – bu shunday davlatki, unda davlat hokimiyati va fuqarolar munosabatlari huquq va qonun bilan tartibga solinadi, barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun doirasida harakat qiladilar, fuqarolarning huquq va

erkinliklari kafolatlanadi. Huquqiy davlatning asosiy xususiyatlaridan biri – bu huquq ustuvorligi tamoyilidir. Bu tamoyil huquqiy davlatning poydevori bo‘lib, u konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, qonun oldida hamma teng bo‘lishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi, davlat hokimiyatining qonun doirasida cheklanganligi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi, sud hokimiyatining mustaqilligi kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Huquqiy davlat qurishdagi muhim jihat – bu huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash hisoblanadi. Chunki, huquqni muhofaza qilish organlari davlat hokimiyatining muhim qismi bo‘lib, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifalarini bajaradilar. Shu nuqtai nazardan, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash huquqiy davlat qurishning muhim sharti hisoblanadi. Chunki, huquqni muhofaza qilish organlari davlat hokimiyatining muhim qismi bo‘lib, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifalarini bajaradilar. Shu nuqtai nazardan, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash huquqiy davlat qurishning muhim sharti hisoblanadi.

Rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash uchun quyidagi mexanizmlar samarali hisoblanadi: huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan sud nazoratining kuchliligi; huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining mukammalligi; huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va axloqiy sifatlarining yuqoriligi; huquqni muhofaza qilish organlari

faoliyatining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash mexanizmlarining samaradorligi; fuqarolik jamiyati institutlarining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan samarali nazorati; huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining javobgarlik tizimining samaradorligi. Xususan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlash uchun huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan sud va prokuratura nazoratining kuchliligi, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining o'z vakolatlarini suiiste'mol qilganligi uchun javobgarlikning qat'iyligi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash uchun axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini tanlash va tayyorlash tizimining mukammalligi, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan nazoratining samaradorligi kabi mexanizmlar qo'llaniladi. O'zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlash uchun bu ilg'or tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlash bo'yicha qator istiqbolli yo'nalishlarni belgilash mumkin. Ular qatoriga huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan sud nazoratini kuchaytirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish tizimini

takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi zarur.

Bu kompleks chora-tadbirlar jumlasiga huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan sud nazoratini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish kiradi. Bu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi

tamoyillarining to'liq ta'minlanishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishi, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotning mustahkamlanishi, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlariga bo'lgan ishonchining oshishi kabi ijobiy natijalar kutilmoqda.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlash bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi: huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlaridagi bo'shliqlar va ziddiyatlarni bartaraf etish, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida kompleks huquqiy ekspertiza o'tkazish; huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, kasbiy etika kodekslarini takomillashtirish; huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan sud nazoratini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytirish; huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirish; huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish, xodimlarning moddiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasini yaxshilash, ichki nazorat tizimini takomillashtirish; fuqarolik jamiyati institutlarining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish,

ommaviy axborot vositalarining bu boradagi rolini oshirish.illarini ta'minlash hisoblanadi. Chunki, huquqni muhofaza qilish organlari davlat hokimiyatining muhim qismi bo'lib, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifalarini bajaradilar.

Shu nuqtai nazardan, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlash huquqiy davlat qurishning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA

Huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Huquq ustuvorligi – bu jamiyatda barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va ularning birlashmalari Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz amal qilishini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy tamoyil hisoblanadi. Huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyili markaziy o'rin egallaydi, chunki bu organlar jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifalarini bajaradilar.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunchiligida huquq ustuvorligi tamoyili mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar" deb belgilangan.

3. Huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta'minlash uchun huquqiy, tashkiliy va jamoatchilik nazorati

mexanizmlari mavjud. Huquqiy mexanizmlar ichida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, sud va prokuratura nazorati, advokatlik instituti muhim o‘rin egallaydi. Tashkiliy mexanizmlar ichki nazorat va monitoring tizimi, mansabdor shaxslarning hisobdorlik tizimi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini o‘z ichiga oladi. Jamoatchilik nazorati mexanizmlari fuqarolik jamiyati institutlarining nazorati, ommaviy axborot vositalarining faoliyati, fuqarolarning murojaatlari asosidagi monitoringni qamrab oladi.

4. Huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlashdagi asosiy muammolar qatoriga huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining pastligi, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va ziddiyatlar, kasbiy va axloqiy tayyorgarlikdagi kamchiliklar, nazorat mexanizmlarining samaradorligi pastligi, shaffoflik va ochiqlikni ta’minlashdagi muammolar, korrupsiya holatlari kiradi.

5. Huquqiy davlat qurishdagi muhim jihat – bu huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash hisoblanadi. Chunki, huquqni muhofaza qilish organlari davlat hokimiyatining muhim qismi bo‘lib, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifalarini bajaradilar.

6. Rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash uchun sud nazoratining kuchliligi, qonunchilik hujjatlarining mukammalligi, xodimlarning yuqori kasbiy tayyorgarligi, faoliyatning shaffofligi va fuqarolik jamiyati institutlarining samarali nazorati muhim ahamiyat kasb etadi.

7. O‘zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida huquq ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar qatoriga qonunchilikni takomillashtirish, huquqiy ong va madaniyatni oshirish, sud nazoratini kuchaytirish, shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash, kasbiy tayyorgarlikni oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, fuqarolik jamiyati institutlarining nazoratini kuchaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 92 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2022. – №2.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2016. – №35. – 943-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2019. – №35. – 633-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2021. – №4. – 31-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda
“Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida
kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar
to‘g‘risida”gi PF-5892-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari
to‘plami. – 2019. – №50.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi
“Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi
PQ-2733-sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –
2017. – №4. – 50-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-
maydagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuridik xizmat faoliyatini
tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017-yil 19-yanvardagi PQ-
2733-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi Qarori // O‘zbekiston
Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017. – №18. – 317-modda.

9. Saidov A. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.:
Konsauditinform, 2022. – 264 b.

10. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq,
2021. – 320 b.

11. Ismailov B.I. Sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlashning huquqiy
mexanizmlari. – T.: TDYUI, 2022. – A25 b.

12. To‘laganov A. Huquqiy davlat asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2020. –
240 b.

13. Mamatov X.T. Huquqni qo‘llash amaliyoti: nazariya va amaliyot
muammolari. – T.: TDYUI, 2023. – 215 b.

-
14. Xusanov O. Qonuniylik – huquqiy davlat asosi. – T.: Adolat, 2021. – 185 b.
15. Ismoilov I. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi // Huquq va burch. – 2023. – №2. – B. 12-15.